


Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishi
(2021- yil yanvar)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 1443,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 114,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (62,8 %) ni tashkil etdi.



B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat, D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 194,1 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 135,9 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 108,0 % hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 106,1 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 151,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,5 % ini tashkil etdi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Neft, ming t.	2,0	2,6	0,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	209,8	153,0	-56,0
Gaz kondensati, ming t.	24,5	13,8	-10,7
Chaqiq tosh, ming t.	6,2	5,4	0,8
Shag'al, ming t.	5,2	0,0	-5,2
Tabiiy qumlar, ming t.	7,0	8,3	1,3

Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 905,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 62,8 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

2019- yil	2020- yil	2021- yil
yanvar	yanvar	yanvar
40,9	68,3	62,8
100,0	100,0	100,0

Metallurgiya sanoati

(2021- yil yanvar)





Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 0,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 55,2 % ga oshgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 40,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



(2021- yil yanvar)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 94,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 20,7 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 11,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati*(2021- yil yanvar)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 5,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 226,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati***(2021- yil yanvar)*


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 8,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 74,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,1 % ni, fizik hajm indeksi 21,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 333,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar)




2020- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 107,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % fizik hajm indeksi 94,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 33,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar)

2020- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 29,7 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,4 % ni, fizik hajm indeksi 106,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 280,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(2021- yil yanvar)

2020- yilning yanvar oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 54,1 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 92,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020-yilning yanvar oyida - 0,1 %), o'rta – yuqori texnologiyali- 19,5 % (22,9 %), o'rta – quyi texnologiyali - 1,1 % (3,5 %) va quyi texnologiyali - 42,1 % (41,9 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 15,7 % (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 19,4 % (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 106,7 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 23,1 % (2020-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 121,7 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi - 2,3 % (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 94,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati


2021- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 203,9 ming litr aroq (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 114,8 % ga o‘sgan), 12,6 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (116,3 %), 12,4 ming tonna og‘irligi 0,94 dan kam bo‘lmagan polietilen (106,3 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen, ming t.	11,7	12,4	0,7
Asfaltli aralashmalar, ming t.	0,7	0,9	0,2
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	10,8	12,6	1,8
Paxta tolasi, ming t.	5,7	3,8	-1,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,0	0,7	0,7
Kaliy xlorid, ming t.	16,2	16,2	0,0
Plastmassaquvurlar, ming t.	0,6	0,3	-0,3
Ip kalava, ming t.	2,2	2,5	0,3


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
2021- yilning yanvar oyida


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 376,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (26,0 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,0 % ga o'sgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	1024,9	1188,7	163,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	293,0	291,5	-1,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar	2021- yil yanvar	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	61,2	61,2	0,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3140,0	3139,8	0,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'sish sur'ati 76,9 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 314,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 21,8 % ni tashkil etdi.



















Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,6 % (2020- yil yanvar oyida 1,7 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 33,2 % ni, shuningdek Shahrisabz tumani 8,5 % ni, Yakkabog' tumani 8,3 % ni, Koson tumani 6,9 % ni, Shahrisabz shahri 6,9 % ni hamda Chiroqchi tumani 5,6 % ni tashkil etdi.



Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Koson tumanida (122,2 %), Qarshi shahri (110,7 %), Shahrisabz shahrida (107,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar oyida

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	314,4	100,0	106,1		104,2	33,2	110,7
	Qashqadaryo viloyati				Qarshi sh.		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	21,7	6,9	107,8		9,5	3,0	101,5
	Shahrisabz sh.				G'uzor		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	5,5	1,8	100,5		14,5	4,6	101,9
	Dehqonobod				Qamashi		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	17,3	5,5	100,3		21,8	6,9	122,2
	Qarshi				Koson		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	16,2	5,2	101,6		9,1	2,9	103,2
	Kitob				Mirishkor		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	7,0	2,2	103,7		9,2	2,9	101,9
	Muborak				Nishon		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	8,0	2,5	101,5		177	5,6	102,2
	Kasbi				Chiroqchi		
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	26,6	8,5	99,2		26,1	8,3	103,0
	Shahrisabz				Yakkabog'		

















Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 28,4 % ni shuningdek Shahrisabz tumani 8,5 %, Yakkabog' tumani 8,3 % va Koson tumanida 7,3 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar oyida

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
Qashqadaryo viloyati				Qarshi sh.			
	113,7	100,0	103,5		32,3	28,4	102,4
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	7,1	6,2	106,1		4,0	3,5	101,4
Dehqonobod				Qamashi			
	2,3	2,0	100,9		5,8	5,1	102,2
Qarshi				Koson			
	7,3	6,4	100,6		9,0	7,9	124,4
Kitob				Mirishkor			
	6,5	5,7	102,4		3,7	3,3	104,9
Muborak				Nishon			
	2,9	2,5	104,5		3,5	3,1	102,1
Kasbi				Chiroqchi			
	2,5	3,1	102,1		7,0	6,2	101,2
Shahrisabz				Yakkabog'			
	9,6	8,5	97,7		9,2	8,1	102,0

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 35,9 %ni, shuningdek Shahrisabz tumani 8,5 % ni, Yakkabog' tumani 8,4 ni tashkil etib, o'sish sur'atida esa eng yuqori ko'rsatkich Koson tumanida (120,7 %), Qarshi shahri (114,8 %) hamda Yakkabog' tumanida (112,1 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar oyida

















	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	200,6	100,0	107,5		72,0	35,9	114,8
Qashqadaryo viloyati				Qarshi sh.			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	14,6	7,3	101,3		5,5	2,8	101,7
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	3,2	1,6	100,2		8,7	4,3	101,8
Dehqonobod				Qamashi			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	10,0	5,0	100,0		12,8	6,4	120,7
Qarshi				Koson			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	9,7	4,8	101,1		5,4	2,7	102,1
Kitob				Mirishkor			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	4,1	2,1	103,1		5,7	2,8	101,7
Muborak				Nishon			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	4,4	2,2	101,1		10,7	5,3	102,9
Kasbi				Chiroqchi			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	17,0	8,5	100,1		16,9	8,4	112,1
Shahrisabz				Yakkabog'			

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar oyida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 232,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,1 % ni tashkil etdi.

**Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar oyida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	1443,5	100,0	114,7		240,4	16,7	116,7
Qashqadaryo viloyati				Qarshi sh.			
	21,9	1,5	101,5		264,8	18,3	108,5
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	42,5	2,9	96,0		33,8	2,3	92,0
Dehqonobod				Qamashi			
	83,8	5,8	115,5		32,8	2,3	57,7
Qarshi				Koson			
	23,6	1,6	101,8		24,6	1,7	95,7
Kitob				Mirishkor			
	50,1	3,5	75,5		402,3	27,9	120,4
Muborak				Nishon			
	78,8	5,5	205,6		45,9	3,2	112,8
Kasbi				Chiroqchi			
	26,6	1,8	101,0		71,6	5,0	156,5
Shahrisabz				Yakkabog'			


Qashqadaryo viloyati jami sanoat
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 27,9 %) hamda G'uzor tumani (18,3 %), Qarshi shahri (16,7 %) va Qarshi (5,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Shahrisabz shahriga (1,5 %) va Kitob tumaniga (1,6 %) to'g'ri kelmoqda.

Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'sishi Koson tumani (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 122,2 %), Qarshi shahri (110,7 %) va Shahrisabz shahrida (107,8 %) iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganini kuzatishimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da
Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da


Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 205,6 %), Yakkabog' (156,5 %), Nishon (120,4 %), Qarshi shahri (116,7 %) hamda Qarshi tumanlarida (115,5 %) sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Nishon (2 614,0 ming so'm), G'uzor (1 288,7 ming so'm), Qarshi shahrida (867,9 ming so'm) hamda Muborak tumanlarida (572,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (436,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar oyida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	436,5	95,0		867,9	376,4
Qashqadaryo viloyati			Qarshi sh.		

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	156,6	154,8		1 288,7	46,5
Shahrisabz sh.			G'uzor		

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	286,4	37,1		124,0	53,1
Dehqonobod			Qamashi		

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	335,4	69,3		114,2	76,0
Qarshi			Koson		

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	89,2	61,2		204,1	75,7
Kitob			Mirishkor		

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	572,9	80,3		2 614,0	59,6
Muborak			Nishon		


	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	398,6	40,3		110,7	42,6
Kasbi			Chiroqchi		

	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	119,6	119,3		270,5	98,6
Shahrisabz			Yakkabog'		

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 95,0 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida - 376,4 ming so'mni, Koson tumani - 119,6 ming so'mni, Shahrisabz shahrida 106,5 ming so'mni, Muborak tumanida - 101,7 ming so'mni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi
2021- yilning yanvar oyida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 397,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,6 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirishkor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 99,6 %), Kitob (98,3 %), Yakkabogʻ (90,5%), Shahrisabz (80,1 %), Shahrisabz sh. (79,5 %) hamda Koson (58,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Nishon (2,4 %), Gʻuzor (3,6 %) va Kasbi (12,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4142 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 805 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,4 % i) Qarshi shahriga, 480 tasi Kitob tumaniga (11,6 %), 360 tasi Yakkabog' tumaniga (8,7 %), 356 tasi Shahrisabz shahri (8,6 %), 333 tasi Chiroqchi (8,0 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021- yilning yanvar oyida viloyatda 102 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 19 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,6 %), Qarshi shahrida, 13 tasi (12,8 %), Shahrisabz shahrida, 11 tasi (10,8 %), G'uzor tumanida, 10 tasi (9,8 %), Kasbi tumanida tashkil etildi.

Sanoat Statistikasi
Bo'limi
Tel: (75) 221-32-36